

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2023 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Mushtariy Xolmurodova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“Lingvistika” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadieva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Mushtariy Kholmuradova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Болат Қалыбеков

Қазақ терминологиясының кейбір өзекті мәселелері.....6

Замира Абдужаббарова

Экономия речи в когнитивных и национально-культурных особенностях речевой компетентности в английском и узбекском языках.....27

Marhabo Umurzoqova

Personaj lisoniy shaxsida yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi36

Iqbol O'razova

Mental leksikonda so'zlarning saqlanishi.....44

Dilfuza Shonazarova

Diskurs tahlilning o'ziga xos xususiyatlari57

Sherzod Atamuradov

O'zbek va turk tillarida pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi lisoniy omillar66

Mahliyoxon Tuxtasinova

L. Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug'ati uchun asos bo'lgan manbalar.....88

Lobar Qambarova

Tilshunoslikda afaziya tasnifi112

Go'zal Mirzayeva

O'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasining qiyosiy tahlili.....125

Kamola Abdulloyeva

Tasviriy ifodalarning muallif modalligini aks ettirishdagi ahamiyati..... 132

Xayriniso Mamirova

So'z ma'nosini o'zlashtirishining gender va yosh xususiyatlari bilan bog'liqligi...144

Nafisa Arolova

Til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirishga qaratilgan metodlar157

Shirinoy Muhsinjonova

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida sut mahsulotlariga doir leksemalarning aks ettirilishi171

Qudratillo Bakirov

"Devonu lug'otit-turk" da qo'llangan vaqtni nomlovchi leksik birliklarning hozirgi turkiy tillar iste'mol qatlamidagi o'rni.....181

Mental leksikonda soʻzlarning saqlanishi

Iqbol O'razova¹

Abstrakt

Inson nutqiy faoliyatining oʻziga xos xususiyatlarini batafsil oʻrganish va bu boradagi ilmiy gʻoyalarning keyinchalik rivoji natijasida qoʻlga kiritilgan dalillar shundan guvohlik beradiki, insondagi leksikon nutqiy faoliyatni tashkillashtiruvchi asoslardan biri boʻlib, tilning atributi hisoblanadi. Leksikon inson nutqiy faoliyatini yuzaga chiqaruvchi leksik komponent sifatida qaraladi. U til haqidagi maʼlumot yigʻiladigan nafaol manbaa emas, nutqiy tajriba va uning mahsullarini qayta ishlovchi va tartibga soluvchi jarayonda doimiy aloqada boʻlishi natijasida oʻz-oʻzidan harakatlanuvchi dinamik funksional sistemadir. Chunki nutqiy tajribada sistema doirasiga sigʻmaydigan yangilik uning qayta qurilishiga olib keladi, sistemaning oʻzgarishga uchragan har bir holati navbatdagi qayta ishlovda qiyoslash uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqola psixolingvistikaning dolzarb mavzularidan boʻlmish mental leksikonda soʻzlarning saqlanishi haqida boʻlib, maqolada oʻtkazilgan assotsiativ eksperiment natijalari tahlil etilib, tahlillar asosidagi xulosalar bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: *Mental leksikon, assotsiativ eksperiment, retsiyent, stimul soʻz, reaksiya, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, koordinatsiya munosabati, subordinatsiya munosabati, superordinatsiya munosabati, lemma.*

Kirish

Individ leksikoni talqiniga yondashuvlar tadrijiga nazar solsak bu boradagi izlanishlar psixolingvistika taraqqiyoti umumiy anʼanalariga mos tarzda rivojlanishini kuzatish mumkin.

50-60-yillardagi psixolingvistik tadqiqotlarda leksikon haqidagi qarashlarning taraqqiy qilishiga ikki jihat samarali taʼsir koʻrsatdi. Ularning **birinchisi** – oʻsha davrda keng tarqalgan lingvistik konsepsiyalar boʻlsa, **ikkinchisi** – Osgud va J.Diz gʻoyalari taʼsirida shakllangan leksikonning ichki strukturasini aniqlash va

¹ Markhabo E. Umurzakova Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: umurzakovamarkhabo@gmail.com

ORCID ID : 0000-0001-5658-789X

For citation: Umurzakova, E. M. 2023. "Appearance of age characteristics in the linguistic personality of the character". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2023-2: 44-56.

bolalarda uning shakllanishidagi o'ziga xoslikni ochib berishga bo'lgan intilishdir. Shu asnoda so'zning konnotativ ma'nosiga diqqat qaratilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari e'lon qilindi. Bu tarzda tadqiqotlar mental leksikon muammosiga keyinchalik kognitiv yondashuv deb talqin qilingan qarashlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. Har nima bo'lganda ham mental leksikon haqidagi ma'lumotlar psixolingvistikaga oid qo'llanmalarda o'tgan asrning 70-yillarining o'rtalaridayoq paydo bo'la boshladi.

Adabiyotlar tavsifi

Leksikon Osgud tomonidan axborotni kognitiv qayta ishlashning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. U leksikonni xotira saqlovchi emas, ko'pincha jarayon sifatida ta'kidlaydi. Leksikonda saqlanib qoladigan belgilar va semantik alomatlar kodlari o'rtasida keng aloqalar yig'indisidir. Belgilar tushunchasi leksikon bilan aloqador bo'lgan mexanizmlar: operator (qisqa muddatli xotira jarayoni), buffer (axborotni qisqa vaqt saqlab turadigan mexanizm) va xotira (uzoq muddatli semantik axborotni saqlash mexanizmi) uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Semantik belgilar Osgud tomonidan mediatsion alomat sifatida talqin qilingan.

Dyusburg simpoziumining materiallari jamlangan "Leksikonga zamonaviy yondashuv" to'plamida ham Avstraliya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Yangi Zellandiya, AQSH olimlarining leksikon strukturasi va mental reprezentatsiya, leksikonni tavsiflash natijalari, mashinada modellashtirish nuqtayi nazaridan leksikonga yondashuv, leksikografiya va leksikon o'rtasidagi munosabat masalalariga doir fikrlari o'z aksini topgan. So'nggi yillarda e'lon qilingan nashrlarda "leksikon" atamasi keng qo'llanishiga qaramasdan, tushuncha mazmuniga mos keladigan yakdil talqin deyarli mavjud emas. Bu atamani qo'llagan mualliflar "leksikon" deganda nimani nazarda tutganlarini aniq sharhlab ketmaydilar. Bu ish amalga oshirilgan hollarda ham ko'pincha "leksikon" deganda:

- individual lug'at boyligi [Dobrovolskiy, 1996],
- insonning barqaror xotirasidagi so'zlar reprezentatsiyasi [Korol, 1994];
- inson xotirasidagi so'z asrovchi manba va hkz. tushunilgan.

E'lon qilinayotgan ishlar orasida leksikon haqidagi sof nazariy muhokamalar ham uchrab turadi. Ana shunday fikrlardan ayrimlarini ko'rib chiqish foydadan xoli emas. Ayrim mualliflarning [Fillmor, Atkins, 1994] taxminiga ko'ra, so'zning ma'nosini tajriba va malaka

asosida shakllangan tovushga oid bilimlar vositasidagina tushunish mumkin. So'zning ma'nosi tushunchani motivlab, so'z shaklida kodlanadigan fremlarni fahmlagan kishiga tushunarli bo'ladi. Shunday nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, so'z yoki so'zning ma'nolari bir-biri bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanmay, ularning aloqasi faqat **umumiy fremlar** orqali yuzaga chiqadi. Fillmor va Atkins kelajakda fremlardan lug'at tuzib, ularni komputerdagi qo'llashni o'zlariga maqsad qilib olganlar.

Metod va metodologiyasi

Leksikonni tadqiq qilish turli xil tillar doirasida ham olib borilishi kerak. Zero, tipologik jihatdan farqlanuvchi tillar manbasi asosida olib borilgan tadqiqot natijalarini qiyoslamay turib inson leksikoni mavjudligining umumiy va xususiy jihatlari chegarasini aniqlash imkonsizdir. Shu bois mental leksikonda so'zlarning saqlanishini amaliy jihatdan o'rganish maqsadida kichik assotsiativ eksperiment, lingvostatistik, struktur-semantik tahlil metodlari asosida tadqiq amalga oshirildi.

Assotsiotiv eksperiment natijalari va tahlili

Eksperimentga O'zMUning O'zbek filologiyasida tahsil oluvchi 2-kurs magistrantlari jalb qilindi. Tajribada o'n kishi ishtirok etdi. Ulardan 6 nafari qiz bola, 4 nafari esa o'g'il bola. Retsipiyentlarning har biriga alohida holda quyidagi stimul so'zlar berildi va ulardan xayoliga kelgan ilk reaksiyani qog'ozga tushurish so'raldi. Stimul so'zlar teng miqdorda, ya'ni 2 tadan, beshta so'z turkumlaridan (ot, sifat, son, ravish, fe'l) tanlab olindi.

Tajriba natijasida 100 ta javob reaksiyalari yig'ildi va jadvalda quyidagicha aks ettirildi:

Stimul so'zlar	Takrorlangan reaksiya	Takrorlanmagan reaksiya
kam	oz (6 ta)	ko'p (1 ta), yetishmaslik (1 ta), vaqt (1 ta), hayotda hamma narsa kam (1 ta)
erta	vaqtli (4 ta), indin (2 ta)	soat to'rtida turish (1 ta), birinchi (1 ta), bugun (1 ta), noma'lum (1 ta)
dangasa	ishyoqmas (4 ta), talaba (2 ta)	o'zim (1 ta), uyquchi (1 ta), beqaror (1 ta), behafsala (1 ta)

o'tkir	pichoq (2 ta)	yaxshi kesadigan (1 ta), yaxshi ishlaydigan (1 ta), uchli (1 ta), keskir (1 ta), so'z (1 ta), olg'ir (1 ta), a'lo darajali (1 ta), yomon (1 ta)
million	pul (4 ta), QVZ (2 ta)	ko'pchilik (1 ta), sevimli raqam (1 ta), dollar (1 ta), so'm (1 ta)
sakkiz	son (6 ta)	to'qqiz (1 ta), turadigan etaj (1 ta), S. Jerard (1 ta), Sergeli 7- Chilonzor 25da yuruvchi avtobus (1 ta)
burgut	qush (4 ta), o'tkir ko'z (2 ta)	yuksaklik (1 ta), mag'rur (1 ta), abjir (1 ta), qushlar qiroli (1 ta)
muhabbat	sevgi (4 ta), mehr (2 ta),	nikoh (1 ta), ezgulik (1 ta), azob, qiynoq (1 ta), hozirgi muammo shu (1 ta)
chaqmoq	momaqalldiroq (2 ta), yashin (2 ta), olovdek (2 ta)	nur (1 ta), kutilmagan (1 ta), bahor (1 ta), bir lahza (1 ta)
qizarmoq	uyalmoq (8 ta)	pishishga yetgan (1 ta), uyat (1 ta)

Polisemantik so'zlarning leksikonda saqlanishi borasida olimlar turli taxminlar bildirishgan va shunday xulosaga kelishgan. Ko'p ma'noli so'zning turli xil leksik-semantik variantlari individ leksikonida xuddi so'zlar singari alohida-alohida saqlanadi. Ular istalgan paytda o'ziga tegishli lemmalar bilan semantik aloqalarga kirishishi mumkin. Ushbu fikrni amalda tasdiqlash maqsadida polisemantik va omonim so'zlar ham stimullar sirasiga kiritildi.

o'tkir, million, muhabbat, qizarmoq stimul so'zlari ko'p ma'noli so'zlar, ***erta, chaqmoq*** stimul so'zlari esa omonimlik xususiyatiga ega.

Tajriba jarayonida *o'tkir, million, qizarmoq* stimullarining ham o'z ma'nosiga daxldor, ham ko'chma ma'nosiga daxldor reaksiyalar kuzatildi. Ammo *muhabbat* ko'p ma'noli so'zi faqat o'z ma'nosida qabul qilingan (*sevgi, mehr, nikoh, ezgulik, azob, qiynoq, hozirgi muammo shu*). Hech bir retsipyent uni atoqli ot sifatida idrok qilmagan. Bunga quyidagilar sabab bo'lgan bo'lishi mumkin:

- stimul kichik harf bilan yozilgani sababli turdosh ot sifatida qabul qilingan bo'lishi mumkin;
- tajriba ishtirokchilarining yoshligi va emotsiyaga berilgani ko'chma ma'noning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilgan;
- ekstralingvistik omillar natijasida shakllangan reaksiyaning faolligi ko'chma ma'noning xiralashuviga sabab bo'lgan. Masalan: *nikoh* stimulining berilishiga A.S. ning hayotida bo'lgan

o'zgarish sabab bo'lgan. Q.Sh.ning *hozirgi muammo shu* stimulini berishiga uning hayotda qat'iy qaror qabul qilishdan yoki xato qilishdan qo'rqishi sabab bo'lgan.

Erta omonim so'zining har ikkala ma'nosini izohlovchi reaksiyalar olindi. Ammo **chaqmoq** stimulini retsipyentlarning barchasi ot sifatida qabul qilgan va reaksiyalar ham ot semani izohlashga qaratilgan (*momaqaldiraq, yashin, olovdek, nur, kutilmagan, bahor, bir lahza*). Stimulning fe'l semasini yorituvchi reaksiyalar kuzatilmadi. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- stimul so'zlar qatorida *chaqmoq* va *burgut* so'zlari ketma-ket joylashgani retsipyentlarda ot turkumiga tegishli reaksiyalarning qo'zg'alishiga sabab bo'lgan;

- nutqda fe'lning infenitiv shaklda qo'llanmasligi sabab bo'lgan; chunki o'zbek tilida fe'llar asosan zamon, shaxs-son shakllarini olgan holda nutqqa kiradi. Noaniq shakldagi fe'l nutqiy jarayonda juda kam ishlatiladi;

- kundalik hayotda stimul so'zning fe'l leksema shakli kam ishlatilgani; Shahar sharoitida ayni fe'l anglatgan ma'no bilan bog'liq harakat bajarilmaydi. Natijada ushbu lemma leksikonda nafaol qatlamga tushgan bo'lishi mumkin;

- retsipyentlarning emotsionalligi ot turkumi bilan bog'liq lemmalarni faollashtirgan. *Olovdek, nur, kutilmagan, bir lahza* reaksiyalari bunga misol bo'ladi.

Demak, **“chaqmoq”** so'zi leksikonda ko'proq ot sifatida faol saqlanar ekan. Ammo nutqiy vaziyatga qarab ayni shu shakldagi fe'l lemma ham tanlanaveradi.

Tajriba natijalarini o'rganish asnosida mental leksikonda ko'p ma'noli so'zning o'z ma'nosi ko'chma ma'noga qaraganda faolroq ekaniga guvoh bo'ldik. **“O'tkir”** so'zi ko'p ma'noli bo'lsa-da, 8 nafar retsipyent uni o'z ma'nosida qabul qilgan, faqat ikki qatnashchi uning ko'chma ma'nosiga e'tibor qaratgan (*so'z, olg'ir*). **Milion** stimuli berilgan reaksiyalarning 8 tasida son sifatida idrok qilingan, faqat 2 ta retsipyent uning ko'chma ma'nosini (QVZ) qayd etgan. Bunga hosil qiluvchi semaning nutqda faol ishlatilishi sabab bo'lgan.

Ammoleksikonda ayrim ko'p ma'noli so'zlarning hosila ma'nosi o'z ma'nodan faolroq bo'lishi ham mumkin. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin. Agar hosila ma'no hosil qiluvchi ma'noga nisbatan nutqda faol qo'llansa, tajriba jarayonida bu aks etadi. Chunki har bir nutqiy qolip leksikonda o'z izini qoldiradi va stimul shu “iz” ta'sirida reaksiya qo'zg'atadi. **Qizarmoq** fe'li ko'p ma'nolidir. Ammo 9 nafar retsipyent so'zni ko'chma ma'nodagi hissiy holat fe'li sifatida qabul

qilgan (*uyalmoq, uyat*), faqat bir ishtirokchi, uning o'z ma'nosini qayd etgan (*pishishga yetgan*). Bu stimuldagi ko'chma ma'no o'z ma'noga qaraganda faollik ekanidan darak beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tajribada 4 ta ko'p ma'noli va 2 ta omonim so'zni stimul so'zlar qatorida tekshirish asnosida 1 ta ko'p manoli so'zning ko'chma ma'nosi, 1 ta omonim so'zning ikkinchi ma'nosi ochildi. Ko'p ma'nolilik bir so'z turkumi doirasida kuzatilgani sababli bu jarayonga ta'sir ko'rsatmadi. Ammo chaqmoq stimulidagi omonimlik turli so'z turkumida bo'lgani va ayni biz nazarda tutgan sema ma'nosini assotsiatsiyalovchi reaksiya berilmagani jarayonga ta'sir ko'rsatdi. Quyidagi tahlillarimizda chaqmoq stimuliga berilgan reaksiyalarni ot leksema sifatida tasniflaymiz.

Tajriba jarayonida olingan reaksiyalar va stimul orasida ikki xil munosabat mavjud:

✓ Paradigmatik munosabatni ifodalovchi assotsiatsiyalar;

✓ Sintagmatik munosabatni ifodalovchi assotsiatsiyalar.

Natijalar quyidagicha guruhlandi:

Stimul so'zlar	Paradigmatik munosabatni ifodalovchi reaksiyalar	%	Sintagmatik munosabatni ifodalovchi reaksiyalar	%
kam	<i>oz (6 ta), ko'p (1 ta), yetishmaslik (1 ta)</i>	80	<i>vaqt (1 ta), hayotda hamma narsa kam (1 ta)</i>	20
erta	<i>vaqtli (4 ta), indin (2 ta), birinchi (1 ta), bugun (1 ta), noma'lum (1 ta)</i>	90	<i>to'rtta turish (1 ta)</i>	10
dangasa	<i>ishyoqmas (4 ta), uyquchi (1 ta), beqaror (1 ta), behafsala (1 ta)</i>	70	<i>o'zim (1 ta), talaba (2 ta)</i>	30
o'tkir	<i>uchli (1 ta), keskir (1 ta), olg'ir (1 ta), yomon (1 ta), a'lo darajali (1 ta), yaxshi kesadigan (1 ta), yaxshi ishlaydigan (1 ta)</i>	70	<i>so'z (1 ta), pichoq (2 ta)</i>	30
million	-	0%	<i>pul (4 ta), dollar (1 ta), so'm (1 ta), QVZ (2 ta), ko'pchilik (1 ta), sevimli raqam (1 ta)</i>	100
sakkiz	<i>son 6 ta, to'qqiz (1 ta)</i>	70	<i>turadigan etaj (1 ta), S. Jerard (1 ta), Sergeli 7-Chilonzor 25da yuruvchi avtobus (1 ta)</i>	30

burgut	<i>qush (4 ta), yuksaklik (1 ta)</i>	50	<i>o'tkir ko'z (2 ta), mag'rur (1 ta), abjir (1 ta), qushlar qiroli (1 ta)</i>	50
muhabbat	<i>sevgi (4 ta), mehr (2 ta), nikoh (1 ta), ezgulik (1 ta), azob, qiynoq (1 ta)</i>	90	<i>hozirgi muammo shu (1 ta)</i>	10
chaqmoq	<i>momaqalldiroq (2 ta), yashin (2 ta), bir lahza (1 ta), nur, bahor (1 ta)</i>	70	<i>kutilmagan (1 ta), olovdek (2 ta)</i>	30
qizarmoq	<i>uyalmoq (8 ta), uyat (1 ta), pishishga yetgan (1 ta)</i>	100		-

Olingan reaksiyalarda paradigmatic assotsiatsiya sintagmatik assotsiatsiyadan ancha yuqori ekanligi aniq bo'ldi:

- paradigmatic assotsiatsiya – 69 ta (69%);
- sintagmatik assotsiatsiya – 31 ta (31%).

Xulosa qilish mumkinki, mental leksikonda so'zlar paradigmatic munosabatda guruhlangan va shu holatda saqlanadi.

Har bir so'z turkumida bu ko'rsatkich turlichadir:

So'z turkumi	Reaksiyalar soni	Paradigmatik assotsiatsiya	%	Sintagmatik assotsiatsiya	%
Ot	30 ta	21 ta	70	9 ta	30
Sifat	20 ta	14 ta	70	6 ta	30
Ravish	20 ta	17 ta	85	3 ta	15
Son	20 ta	7 ta	35	13 ta	65
fe'l	10 ta	10 ta	100	-	-

Ravish, sifat, ot, fe'l so'z turkumlariga berilgan reaksiyalarda paradigmatic munosabatli javoblar sintagmatik munosabatli javoblarga qaraganda ancha ustun ekani ko'rinadi. Son so'z turkumiga berilgan javob reaksiyalarda buning teskarisini ko'rish mumkin, ya'ni sintagmatik reaksiyalar paradigmatic reaksiyalarga nisbatan ko'p.

Paradigmatik reaksiyalar (68 ta) orasida quyidagi munosabat mavjud:

1. Koordinatsiya munosabati. Koordinatsiyada ikki hodisa kuzatildi:

- **Sinonimlik:** *kam-oz-6 ta, erta-vaqtli-4 ta, birinchi-1 ta, dangasa-ishyoqmas-4 ta, uyquchi-1 ta, beqaror-1 ta, behafsala-1 ta, o'tkir –uchli*

1 ta, keskir-1 ta, olg'ir-1 ta; muhabbat –sevgi-4, mehr-2 ta, ezgulik-1 ta, chaqmoq –yashin-2 ta, nur-1 ta; qizarmoq – uyalmoq-8

ta, pishishga yetgan-1 ta

- **Antonimlik:** **kam**-ko'p-1 ta, **erta**- indin-2 ta, **bugun**-1 ta, **noma'lum**-1 ta, **sakkiz-to'qqiz**-1 ta

2. **Subordinatsiya munosabati:** **muhabbat** - *nikoh*-1 ta, *azob*, *qiynoq*-1 ta; **chaqmoq** -*bir lahza*-1 ta; 4

3. **Superordinatsiya munosabati:** **kam**-*yetishmaslik*-1 ta; **o'tkir** - *a'lo darajali* -1 ta, *yaxshi kesadigan*-1 ta, *yaxshi ishlaydigan*-1 ta, *yomon*-1 ta; **sakkiz**-son - 6 ta, **burgut**-*qush*-4 ta; **chaqmoq**-*momaqaldir*-2 ta, *bahor*-1 ta; **qizarmoq**-*uyat*-1 ta; **burgut**-*yuksaklik*-1 ta; 20

Paradigmatik reaksiyalarning 46 tasi koordinatsiya munosabatini ifodalagan. Subordinatsiya munosabatini ifodalagan reaksiyalar 3 ta, superordinatsiya munosabatini aks ettiruvchi reaksiyalar 20 tani tashkil qiladi. Berilgan paradigmatic munosabatli javoblarning 59% i (40 tasi) sinonim so'zlardir. Ravish, sifat, mavhum ot (*muhabbat*), holat fe'liga berilgan reaksiyalarda sinonim so'zlar ko'proq uchraydi. Oppozitlar 4% (*kam/ko'p*, *erta/indin*, *erta/keyin*, *erta/noma'lum*)ni tashkil qiladi va faqat ravish so'z turkumiga tegishlidir. Bizni ajablantirgani, har ikkala sifatning antonimi bo'lsa-da, reaksiyalarda birorta antonim so'z uchramaydi. Ayni shu holat E.Xonnazarovning "So'z va so'z guruhlari eksperimental o'rganish" mavzusi yuzasidan o'tkazgan tajriba natijalarini o'rganish jarayonida ham kuzatildi. Ammo G.Iskandarovning 2-4 yoshli bolalarda o'tkazgan eksperimentida oppozitlar 45% ni tashkil etganining guvohi bo'ldik. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, inson umrining boshlang'ich bosqichida atrof-olamni, borliqni zidlash orqali idrok qiladi va o'rganadi, ammo olingan bilimlar mazmuniy uyalarga birlashgan holda leksikondan joy oladi. Stimullar o'z atrofidagi yoki o'zi bilan bir qatorda turgan sinonimlarni qo'zg'atadi.

Berilgan sintagmatik reaksiyalar (31 ta) orasida asosan ikki xil munosabat kuzatildi:

Stimul so'zlar	Izohlovchi – izohlanmish munosabatini ifodalagan reaksiyalar	Subyekt – predikat munosabatini ifodalagan reaksiyalar
kam	<i>kam vaqt (1 ta)</i>	<i>hayotda hamma narsa kam (1 ta)</i>
erta	-	<i>erta - to'rtta turish (1 ta)</i>
dangasa	<i>dangasa talaba (2 ta)</i>	<i>dangasa - o'zim (1 ta)</i>
o'tkir	<i>o'tkir pichoq (2 ta), o'tkir so'z (1ta)</i>	-

million	million <i>pul</i> (4 ta), million <i>dollar</i> (1 ta), million <i>so'm</i> (1 ta)	million-QVZ (2 ta), million - <i>ko'pchilik</i> (1 ta), million - <i>sevimli raqam</i> (1 ta)
sakkiz	-	<i>sakkiz - turadigan etaj</i> , <i>sakkiz - S. Jerard</i> , <i>sakkiz - Sergeli 7 - Chilonzor 25da yuruvchi avtobus</i>
burgut	<i>o'tkir ko'z burgut</i> (2 ta), <i>mag'rur burgut</i> (1 ta), <i>abjir burgut</i> (1 ta)	<i>burgut - qushlar qiroli</i> (1 ta)
muhabbat		<i>hozirgi muammo shu</i> (1 ta)
chaqmoq	<i>kutilmagan chaqmoq</i> (1 ta), <i>olovdek chaqmoq</i> (2 ta)	-
qizarmoq	-	-

Sintagmatik reaksiyalarning 19 tasi “izohlovchi – izohlanmish” munosabatini, 12 tasi “subyekt – predikat” munosabatini ifodalagan. “izohlovchi – izohlanmish” munosabati faqat bitishuv yo'li bilan hosil qilingan va **[belgi bildiruvchi so'z+ot]** qolipida shakllantirilgan. Sifatlovchi vazifasida sifat, son, ravish, sifatdash so'z turkumlari qo'llangan.

Sintagmatik reaksiyalarning paydo bo'lishida ekstralingvistik omillar muhim rol o'ynaganining guvohi bo'ldik. **dangasa talaba**, **dangasa** – o'zim reaksiyalari imtihon paytidagi qiynalgan talabalarning o'z aybini tan olishi natijasida yuzaga chiqqan. *To'rtida turish*- A.S.ning , **sakkiz** – *turadigan etaj* A.Sh.ning, **sakkiz** – *Sergeli 7- Chilonzor 25da yuruvchi avtobus* X.E.ning hayoti bilan bog'liq ma'lumotni aks ettiradi. Q.Sh.ning futbolga bo'lgan qiziqishi **sakkiz** - *S. Jerard* reaksiyasiga sabab bo'lgan.

“**million**” stimuliga retsipyentlar 100% sintagmatik munosabatni ifodalovchi reaksiyalarni berishdi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

- “million” sonining yirik raqam bo'lgani va sanoq son sifatida ishlatilmagani;

- kundalik hayotda ko'pincha pulga nisbatan bu miqdorning qo'llangani; Retsipyentlardagi to'kin hayotga bo'lgan intilish, moddiy ehtiyojni qondirish borasidagi harakatlar *million pul, million dollar, million so'm* reaksiyalarining shakllanishiga sabab bo'lgan;

- ishtirokchilarning shaxsiy qiziqishi; ayrim retsipyentlar “million”, ya'ni sobiq “QVZ” jamoasining muxlislari bo'lgani

reaksiyaga sabab bo'lgan. Buni ishtirokchilarning yoshi, qiziqishi va yangiliklarni tez qabul qilishi bilan bog'lash mumkin.

Yigitlar bergan javoblarning 55% i paradigmatic, 45% i sintagmatik munosabatni ifodalaydi. Qizlar bergan javobning 72% i paradigmatic, 28% i sintagmatik munosabatni ifodalaydi. Ko'rinadiki, har ikkalasida ham paradigmatic reaksiyalar sintagmatik reaksiyalarga nisbatan ustunlik qilmoqda. Ammo qizlarda paradigmatic munosabatli javoblar sintagmatik munosabatli reaksiyalardan ancha ustunligi ko'zga tashlanadi.

Stimul so'zlarga berilgan reaksiyalar turli xil so'z turkumini tashkil qiladi. Bu quyidagi jadvalda aks etgan.

Stimul so'zlar	Bir xil so'z turkumi	Ot	Sifat	Son	Fe'l	
kam	7 ta (oz, ko'p)	1 ta (vaqt)			1 ta (yetishmaslik)	
erta	3 ta (bugun, indin)		5 ta (vaqtli, noma'lum)	1 ta (birinchi)	1 ta (to'rtida turish)	
dangasa	7 tasi (ishyoqmas, uyquchi, beqaror, behafsala)	2 tasi (talaba)				1 tasi (o'zim) olmosh
o'tkir	5 ta (uchli, keskir, olg'ir, a'lo darajali, yomon)	3 ta (pichoq, so'z)			2 ta (yaxshi kesadigan, yaxshi ishlaydigan)	
million		10 ta (dollar, so'm, pul, QVZ, ko'pchilik)				
sakkiz	1 ta (to'qqiz)	9 ta (son S. Jerard, Sergeli 7-Chilonzor 25da yuruvchi avtobus, turadigan etaj)				
burgut	8 ta (qush, o'tkir ko'z, yuksaklik, qushlar qiroli)		2 ta (mag'rur, abjir)			
muhabbat	9 ta (nikoh, sevgi, mehr, ezgulik, azob, qiynoq)					

chaqmoq	8 ta (moma-qalldiroq yashin, bahor, olovdek, nur)				1 ta (kutilmagan)	1 ta (bir lahza) ravish
qizarmoq	9 ta (uyalmoq pishishga yetgan)	1 ta (uyat)				

Reaksiyalarning 57 tasi (57%) stimul bilan bir xil turkumga, 43 tasi (43%) boshqa so'z turkumiga mansub. Farqli holatlarda ham shu so'z turkumiga o'xshash reaksiyalar berilgan. Masalan, ravish stimuli sifat bilan (erta-vaqtli) yoki sifat stimul sifatdosh (o'tkir-yaxshi kesadigan) bilan izohlangan.

Ravish so'z turkumiga berilgan reaksiyalarning 10 tasi ravish, 5 tasi sifat so'z turkumi bilan ifodalangan. Ravish belgi bildiruvchi so'z turkumi bo'lgani uchun retsiptiyentlar ongida belgi bildiruvchi reaksiya hosil bo'lgan.

Sifat stimullariga berilgan 12 ta sifat, 2 ta sifatdoshli reaksiyalarda paradigmatic munosabat, 5 ta ot va 1 ta shaxsga ishora qiluvchi olmosh reaksiyalarda sintagmatic munosabat mavjud.

Ot va fe'l stimullarida aksariyat reaksiyalar bir xil so'z turkumida. Farqli holatlarda stimul va reaksiya orasida paradigmatic munosabat mavjud.

Son stimullarga berilgan reaksiyalardan 1 tasi son, 19 tasi ot va 2 tasi otli birikma shaklidir. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

- leksikonda har bir lemma shu tilga xos lisoniy imkoniyatlarni o'zida jamlagan holda yashaydi. Nutqimizda son so'z turkumi asosan otga bog'lanishi, predmet yoki shaxsga nisbatan ishlatilishi, yolg'iz holda o'z ma'nosini namoyon qila olmasligi ot reaksiyalarini faollashtirib yuborgan;

- boshqa so'z turkumlaridagi assotsiatsiyalarda sinonimlik hodisasi keng qo'llangan. Son so'z turkumida esa sinonimlik hodisasi mavjud emas. Retseptiyentlar shu boisdan ekstralingvistik omillarga tayangan holda sintagmatic reaksiyalar orqali bo'shliqni to'ldirishga harakat qilishgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- leksikon so'z haqidagi lisoniy imkoniyatlarni aks ettiruvchi butun boshli bir sistema bo'lib, unga muqobil bo'lgan ekvivalent birliklar so'z bilan bog'liq, ayni paytda uning ortida turgan qomusiy bilimlarning reprezent strukturalari bilan aloqador murakkab funksiyalardir. Leksikon barqaror so'z asrovchi manba emas, aksincha muttasil harakatlanuvchi, har bir yangilikdan so'ng

qayta tartiblanuvchi dinamik sistemadir;

- leksikonda so'zlar umumiy fremlarga birlashgan holda yashaydi. Fremlar guruhlariga bo'linadi. Mazmuniy guruhlarini tashkil etgan lemmalar o'zida ham paradigmatic, ham sintagmatic belgilarni saqlaydi. Tajribaga tayanib shuni aytish mumkinki, guruh a'zolari orasidagi eng yaqin munosabat paradigmatic munosabatdir. Chunki u bir bosqichli jarayon bo'lib, stimul o'zi bilan bir uyada joylashgan lemmani reaksiya sifatida faollashtiradi. Sintagmatic munosabat esa ko'p bosqichli jarayon bo'lib, umumiy fremlarning faollashuvi natijasida hosil bo'ladi. Avval umumiy fremlar bog'lanadi, so'ng fremlardan mos so'zlar saralanadi, so'zlarga mos qolip tanlanadi va til egasining grammatik bilimlari asosida sintagmatic munosabat shakllantiriladi. Ayni shu murakkab jarayon sababli retsipyentlar sintagmatic reaksiyalarga faqat ehtiyoj tug'ilgan paytda murojaat qiladi;

- stimul va reaksiya, asosan, bir so'z turkumi doirasida bo'ladi. Chunki paradigmatic munosabat bir so'z turkumi doirasida kuzatiladi;

- ko'p ma'noli so'zlar va omonim so'zlar leksikonda alohida-alohida lemma shaklida saqlanadi va ular faol yoki nafaol lemma bo'lishi mumkin;

- reaksiyalar ekstralingvistik omillar ta'sirida ham shakllanishi mumkin. Qolaversa, assotsiatsiya retsipyentning yoshi, jinsi, qiziqishi, emotsiyaga beriluvchanligi yoki aksincha ekanligi haqida ham ma'lumot beradi.

Adabiyotlar

Usmanova, Sh. 2013. *Psixolingvistika*. Ma'ruzalar matni.

Залевская, А. 1999. *Введение в психолингвистику*. М.

Полубоярин, С.В. *Психолингвистический эксперимент как метод изучения концептуального содержания онимов*.

Денисенко, В., Чеботарева, Е. 2008. *Современные психолингвистические методы анализа речевой коммуникации*. М.

Искандарова, Г. 2014. *Нутқий онтогенезда сўз маъносининг тараққиёти* // Лингвист В. Тошкент.

Preservation of words in the mental lexicon

Iqbol Urazova¹

Absrtact

The evidence obtained as a result of a detailed study of the peculiarities of human speech activity and the subsequent development of scientific ideas in this regard testifies to the fact that the lexicon in man is one of the foundations of speech activity and an attribute of language. A lexicon is considered to be a lexical component that triggers human speech activity. It is not an inactive source of information about language, but a dynamic functional system that moves spontaneously as a result of constant communication in the process of processing and regulating speech experience and its products. Because in speech practice, innovation that does not fit into the framework of the system leads to its reconstruction, each changed state of the system serves as a basis for comparison in the next processing. This article is about the preservation of words in the mental lexicon, which is one of the current topics of psycholinguistics. The article analyzes the results of the associative experiment and draws conclusions.

Key words: *mental lecture, associative experiment, recipient, stimulus word, reaction, paradigmatic attitude, syntagmatic attitude, coordination attitude, subordination attitude, superordination attitude, lemma.*

References

- Usmanova, Shoir. 2013. *Psycholinguistics*. Text of lectures. Tashkent.
- Zalevskaya, A. 1999. *Introduction to Psycholinguistics*. Moscow
- Poluboyarin, S.V. *Psycholinguistic experiment as a method of studying the conceptual content of onyms*.
- Denisenko, V., Chebotareva, Y. 2008. *Modern psycholinguistic methods for the analysis of speech communication*. – Moscow.
- Iskandarova, G. 2014. *Development of word meaning in speech ontogenesis* // Linguist V. Tashkent.

¹ Iqbol A. Urazova – Basic Doctoral Student (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

For reference: Urazova, I.A. "Preservation of words in the mental lexicon". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2023-2: 44-56.